ko8 056305

**Hisob shartnomasi № 26**

**Tovar yetkazib berish boy`icha**

**Andijon viloyati** «31» Январь 2022 yil

« SHUHRAT MED TECH » MChJ (keying o`rinlarda "Sotuvchi" deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida harakat qiluvchi Rahbar XAMIDOVA SH.A., va Тупроққўрғон туман ТБ (keyingi o`rinlarda "Sotib oluvchi" deb yuritiladi) Nizom, asosida harakat qiluvchi А.Бўстонов (ikkinchi tomondan, mazkur shartnomani quyidagilar to`g`risida tuzdilar:

**I. SARTNOMA PREDMETI**

1.1. Mazkur shartnomaga asosan Sotuvchi Sotib oluvchiga qoyida kursatilgan miqdor va narxda mahsulot yetkazib berish majburiyatini oladi, Sotib oluvchi esa uz navbatida mahsulotni qabul qilib olib haqqini to`lash majburiyatini oladi:

| *Mahsulot nomi* | *O'lchov birligi* | *Mikqori* | *Narxi* | *Qiymati* |
|---|---|---|---|---|
| *ABK XLORAKTIV barcha turdagi dezinfektsiya vositalari* | *Kg* | *63,00* | *79 000,00* | *4 977 000,00* |
| | | | ***Jami:*** | ***4 977 000,00*** |

1.2. Ushbu shartnoma bo`yicha yetkazilgan tovarlar uchun to`lov, mazkur shartnomaning 1.1 bandida belgilangan miqdorda amalga oshiriladi.

**II. MAHSULOTNING NARHI VA SIFATI**

2.1. Yetkazib berilayotgan tovarlarning sifati va amal qilish muddati shartnomani tuzish paytida ushbu turdagi mahsulot uchun qo`yiladigan standartlar va texnik shartlarga muvofiq bo`lishi kerak. Mahsulotlarning yaroqlilik muddati umumiy saqlash muddatining 80 foizidan kam bo`lmasligi kerak.

2.2. Agar tovarning sifati ushbu shartnoma talablariga javob bermasa , Sotib oluvchi Sotuvchiga hisob fakturani imzolagan kundan boshlab 30 kun ichida da`vo ariza berish huquqiga ega. Sotib oluvchi mahsulotlarni saqlash shartlariga rioya qilishi shart. Mahsulotlarni noto`gri saqlash yoki sotib oluvchining harakati/harakatsizligi tufayli yuz bersa, buning uchun Sotuvchi javobgar bo`lmaydi.

2.3. Mahsulotlarni miqdori va sifati bo`yicha qabul qilish Sotib oluvchining omborida amalga oshiriladi va tomonlar imzolagan xisob-varak bilan tasdiqlanadi.

2.4. Mahsulotlarni qabul qilishda, Sotib mahsulotlarni shartnoma hisob-varagi shartlariga muvofiqligini va assortimentini, miqdorini, to`liqligini tekshiradi. Agar tekshirish natijasida yetkazib berilgan tovarlarning ko`rsatilgan hujjatlarga mos emasligi aniqlansa , Sotuvchi tomonlarning kelishuviga asosan o`z mablaglari evaziga Sotib oluvchining omboriga mahsulotlarni almashtirish/ yetkazib berish majburiyatini oladi.

2.5. Mahsulot sotuvchining omboriga qabul qilingandan so`ng, mahsulotlarning miqdori nomuvofiqligi bo`yicha e`tirozlar qabul qilinmaydi. Sotib oluvchi 30 run ichida Sotuvchiga qabul qilish dalolatnomasidagi mahsulotlarni sifati bo`yucha asosli yozma talablarini, shuningdek mustaqil ekspertiza tashkilotining xulosasini taqdim etishga haqli

2.6. Yetkazib berilayotgan mahsulotlar davlat standartlar talablariga javob beradigan tayyor, konteynerlarga qadoqlangan bo`lishi kerak. Bu tovarlarni tashish va saqlash paytida buzilish yoki shikastlanishdan saqlaydi.

2.7. Mazkur shartnomaning 2.5 bandida ko`rsatilgan tartibda nuqsonli mahsulotlar yetkazib berilganligi tasdiqlansa , Sotuvchi 30 kun ichida nuqsonli tovarlarni sifatli mahsulotlar bilan almashtirishi shart.

2.8. Sotuvchining talabiga binoan Sotib oluvchi rad etilgan tovarlarni qaytarishi kerak.

2.9. Rad etilgan mahsulotlarni almashtirish yoki qaytarish bilan bo`gliq barcha harajatlarni Sotib oluvchi to`laydi.

**III. TOVARLARNI YETKAZIB BERISH TARTIBI**

3.1. Mahsulotlarni Sotib oluvchining omboriga o`zining kushi bilan yetkazib beriladi.

3.2. Mahsulotlarni topshirish, qabul qilish joyi Sotib oluvchining ombori hisoblanadi.

3.3. Mahsulotlarni topshirish muddati avans to`langan kundan boshlab 10 ish kunini tashkil qiladi

3.4. Sotib oluvchiga yetkazib berilgan maxsulot uchun barcha tegishli hujjatlarni taqdim etgan holda xisob-varaqani rasmiylashtirish sanasidan Sotib oluvchi tomonidan tovarlarni qabul qilish kuni hisoblanadi.

3.5. Ushbu shartnomaning barcha shartlari calendar kunigadan keying kun yoki muddat boshlanishini aniqlagan voqea sodir bo`lgan kundan boshlab hisoblanadi.

**IV. TOMONLARNING KORRUPSIYAGA KARShI KURAShISh BUYIChA MAJBURIYATLARI**

4.1 Shartnoma buyicha o`z majburiyatlarini bajarishda tomonlar korrupsiyaga karshi kurashish buyicha koidalarga shu jumladan amaldagi konunlarga rioya etilishini ta'minlaydi; yani tomonlar bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik kilish, moddiy yoki nomoddiy nafs olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu xarakatning oldini olish buyicha choratadbirlar kabul kilishini kafolatlaydi.

4.2 Tomonlar korrupsiyaga karshi koidalar buzilganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganda darxol yozma ravishda (elektron pochta orkali) yoki ishonch telefoni orkali bir-birini xabardor kilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan xolatga oydinlik kiritish maksadida yozma izox talab kilish xukukiga ega va murojatini olgan tomon 10 (O'n) ish kuni mobaynida tushintirish bereshi yoki uz fikirini bildirishi munkin.

4.3 Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korrupsion xavfxatar bartaraf etilmasa, tomonlar ammalga oshirgan choralar korrupsion xolatni pasaytirishga olib kelmasa, boshka tomon shartnomani bekor kilish xukukiga ega yoki uning ijrosini tuxtatib kuyishi mumkin.

### V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI VA NIZOMLARNI HAL QILISH TARTIBI

5.1. Taraflar majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida kelib chiqadigan nizolar ushbu shartnoma orqali hamda O`zbekiston Respublikasi Xo`jalik yurituvchi subektlarning shartnomaviy bazasi to`g`risidagi Qonuniga asosan hal qilinadi.

5.2. Neustoyka yoki yetkazilgan zararni to`lash taraflarni o`z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi. Yetkazib berishning tegishli davrida mahsulotlarni yetkazib berishni kechiktirish yoki to`liq yetkazib bermaslik uchun Sotuvchi Sotib oluvchiga qonunda belgilangan tartibda neustoyka to`laydi.

5.3. Ushbu shartnomani bajarilishi jarayonida kelib chiqadigan nizolar Toshkent tumanlararo iktisodiy sudida hal etiladi. Sudga da`vo kilishdan oldin o`zaro muzokaralar olib borish yo`ki uzaro hal qilinadi. Da`vo arizalarni taqdim etish va ko`rib chiqishida tomonlar Xo`jalik yurituvchi subektlarning shartnomaviy huquqiy bazasi to`g`risidagi O`zbekiston Respublikasi Qonuniga amal qiladilar.

### VI. FORS-MAJOR HOLATLARI

6.1. Tomonlarga bog`liq bo`lmagan, oldindan oldini olish mumkin bo`lmagan holatlar shu jumladan e`lon qilingan fuqarolik urushi, epidemiyalar, blokadarar, embargolar, zilzilalar, toshqinlar, yo`nginlar, shuningdek davlat organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar, farmonlar, tegishli hijjat bilan tasdiqlangan holatlarda majburiyatlarni bajarmaganligi uchun tomonlar javobgarlikdan ozod qilinadi.

6.2. Taraflar o`zlariga bog`liq bo`lmagan holatlarda majburiyatlarni bajara olmasalar, ushbu holat yuzaga kelgan vaqtdan 10 kun ichida boshqa tarafni yozma ravishda ogohlantirishi kerak.

6.3. Agar fors-major holatlari to`g`risida o`z vaqtida xabar berikmagan bo`lsa, fors-major holatlarini boshidan kechidirgan tomon boshqa tomonga yetkazilgan zarar qoplashi shaart.

### VII. QO`SHIMCHA SHARTLAR

7.1. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik choralari amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

7.2. Shartnoma taraflaridan hech biri boshqa tomonning roziligi siz ushbu shartnoma bilan bog`liq huquq va majburiyatlarni uchunchi shaxsga berishga haqli emas.

7.3. Mazkur shartnoma tomonlar imzolangan va O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G`aznachiligida ro`yxatdan o`tgan kundan boshlab qonuniy huquqa kiradi va 2022 yil 31 dekabrga qadar amal qiladi.

7.4. Mazkur shartnomaga o`zgartirish va qo`shimcha kiritish yozma ravishda rasmiylashtirilgan va taraflar tomonidan imzolangan taqdirda haqiyiy xisoblanadi.

7.5. Mazkur shartnoma taraflarning kelushuvi bilan , bir tomon boshqa tomonni shartnomani bekor kilish vaqtidan 30 kun oldin ogohlantirgan holda bekor qilinishi mumkin.

7.6. Hisob-Shartnoma 2 nusxada tuzilgan bo`lib, ikkalasi ham bir xil yuridik kuchga ega hisoblanadi va taraflarga bir nusxadan beriladi.

7.7. Taraflarni manzili yoki xisob raqamlari o`zgarmagan xollarda ushbu o`zgarish to`g`risida boshqa tarafga 3 kun ichida xabar beradi.

### VIII. HISOB KITOB QILISH TARTIBI

4.1. Mazkur shartnoma bo`yicha tovarlarning umumiy narhi: 4 977 000,00
**(To'rt million to'qqiz yuz yetmish yetti ming so'm 00 tiyin)** tashkil qiladi shu jumladan QQS 0%

4.2. Yetkazib berilgan mahsulot uchun haq to`lash Sotib oluvchi tomonidan ushbu shartnoma imzolangan kundan boshlab shartnoma umumiy qiymatining 30% miqdorda oldindan amalga oshiriladi. Qolgan 70% mahsulot etkazib berilgan kundan 30 kun ichida xisob-varaqaga asosan to`lab beliradi.

### IX. TARAFLARNING MANZILLARI VA REKVIZITLARI

| Sotuvchi | Sotib oluvchini |
|---|---|
| "SHUHRAT MED TECH" mas'uliyati cheklangan jamiyati<br>Yuridik manzil: Andijon viloyati, Andijon tumani, Xakan QFY Mevazor ko'chasi, 53-uy<br>STIR: 307 748 108<br>X/R: 2020 8000 4052 8158 1003<br>MFO: 01 088 Bank: ATV Kapital Bank<br>OKED: 46 460<br>Telefon otdela prodaj: +998 33 950 00 00<br>Raxbar: XAMIDOVA SH.A.<br>Raxbar STIR: 553 019 409 | Тупроққалъа тумани ТБ<br>Хоразм кўча 15 уй<br>тел 30-53-282 ИНН 200209040<br>100022860332217073102054001<br>Молия вазирлиги Ягона ғазна х/в<br>23402000300100001010 мфо 00014<br>Марказий банк Тошкент ш ХККМ<br>стир 202219919 Окэд 9154<br>Raxbar: Абдусаломов<br>Raxbar STIRi |

3547575

Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

# GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"SHUHRAT MED TECH" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"SHUHRAT MED TECH" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

21.09.2020 894432 ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil)

Soliq to'lovchining identifikasiya raqami (STIR): 307748108

Tashkiliy-huquqiy shakli: Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi: Andijon viloyati, Andijon tumani, Xakan, Mevazor ko'chasi, 53-uy,

Guvohnoma: Andijon viloyati, Andijon tumani, DAVLAT XIZMATLARI MARKAZI tomonidan berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi)

...трон рақамли имзо орқали тасдиқланган, ҳужжат коди: IJ3846314338

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1.Loyihaning turi: Shartnoma.

2.Loyihaning nomi: Tovar yetkazib berish to'g'risida.

Keyingi o'rinlarda "Sotib oluvchi" deb nomlanuvchi nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi Tuproqqal'a tuman tibbiyot birlashmasi rahbari A.Duschanov bir tomondan va Tuproqqal'a tumanidagi "SHUHRAT MED TECH" MChJ rahbari Sh.Xamidova keyingi o'rinlarda "Sotuvchi" deb nomlanuvchi ikkinchi tomondan barcha turdagi dezinfektsiya vositalar bilan ta'minlash uchun MChJ bilan kelishib, 2022 yil yanvar oyida 4 977 000 (to'rt million to'qqiz yuz etmish etti ming )so'mlik shartnoma ishlab chiqilgan.

Shuningdek, ushbu shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdagi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi 670-I-sonli Qonunining 3, 10 hamda 21-moddasi talablari, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 437-438-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6313-son Farmoni talablari asosida ishlab chiqilgan hamda Tuproqqal'a tumani yuridik xizmat ko'rsatish markaziga yuborilgan.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot.

Mazkur shartnoma loyihasi Tuproqqal'a tumani tiibiyot birlashmasi tomonidan 2022 yil 31 yanvar kuni ishlab chiqilgan va 2022 yil 2 fevral kuni dasturga kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Tuproqqal'a tumani yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i** **X.Iskandarov**

2022 yil 2 fevral.

"ТАСДИКЛАЙМАН"
Тупраккалъа туман тиббиёт бирлашмаси бошлиги : _______ А.Дусчанов
(Имзо) (Ф.И.О)

# БАЁННОМА № 1

2022 йил " 21 " 01 Тупраккалъа т

**Питнак шахар Тиббиёт бирлашмасининг комиссия аъзолари Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 27 Сентябрдаги ПҚ-3953-сонли карорига илова давлат буюритмачилари томонидан тугиридан тугири шартномалар буйича харид килиш учун таварлар (ишлар хизматлар ) га асосан етказиб беришда харид таварлар (ишлар хизматларнинг ) нархи .сифати ва етказиб бериш муддатлари буйича энг макбул шартларини таклиф этган етказиб берувчилар билан тугиридан тугири шартномалар тузиш хакаида**

**Комиссия раиси:** **С.Бобожанов**
**Ком раиси: (Ф.И.О)**

**Комиссия аъзолари:** **А.Кенжаев**
**Ком аъзоси: (Ф.И.О)**
**Б.Рузибоев**
**Ш.Эргашова**
**И.Матдурдиева**

**Комиссия аъзолари " SHUHRAT MED TECH " MChJ ва " OOO EXIMPHARM МЧЖ ва OOO MASMED IMEX МЧЖ ларда дори-дармон ва дезенфексияловчи воситалар бахолари тугрисида (ишлар,хизматлар) етказиб берувчилардан олинган тижорат таклифларини куриб чикиб куйидагиларни тузди лар:**

| № | Махсулот номи | Улчов бирлиги | SHUHRAT MED TECH " MCh | | OOO EXIMPHARM МЧЖ | | OOO MASMED IMEX | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | сони | Бахоси | сони | бахоси | сони | бахоси |
| 1 | *ABK XLORAKTIV barcha turdagi dezinfektsiya vositalari* | Kg | 1 | 79 000,00 | 1 | 80 000,00 | 1 | 79 500,00 |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |

*Комиссия аъзолари юкоридагиларни солиштириб куриб SHUHRAT MED TECH " MCh да бахоларнинг нисбатан арзонлигини эътиборга олиб, шу корхона билан шартнома тузишга келишдилар ва SHUHRAT MED TECH " MCh мчж. дан сотиб олишга карор килдилар.*

**Комиссия раиси** _______ (имзо) **С.Бобожанов**
Ком раиси: (Ф.И.О.)

**Комиссия аъзолари** _______ (имзо) **А.Кенжаев**
Комаъзоси: (Ф.И.О.)

_______ (имзо) **Б.Рузибоев**
Комаъзоси: (Ф.И.О.)

_______ (имзо) **Ш.Эргашева**
Комаъзоси: (Ф.И.О.)

_______ (имзо) **И.Матдурдиева**
Комаъзоси: (Ф.И.О.)